

## INKLYUZIV TA'LIM VA BARQAROR TARAQQIYOT

**Zakirova Zulfiya Turayevna**

Sirdaryo viloyati Guliston tumani MMTB ga qarashli

33-sonli UO'TM amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Maqola yurtimiz ta'lim tizimidagi islohatlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni yuksaltirish masalalari, 2020-2025- yillarda umumta'lim muassasalari tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan. Ushbu maqola ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni yaratish, uning afzalliklari va ta'lim-tarbiya beruvchi hamda ta'lim-tarbiya oluvchilarning hayotiy natijalarini ijobiy tomonga o'zgarishiga ko'mak beradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, ta'lim shakli, inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'lim sinfi, boshlang'ich tayanch korreksion sinf, tyutor, UNCRD, UNICEV, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat, faoliyatlarni rejalashtirish, ta'lim sifati, inklyuziv ta'limni rivojlantirish ko'lami.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga asosan umumta'lim muassasalarida Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (keyingi o'rinlarda — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) maktablarda boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilishi uchun inklyuziv ta'lim tashkil etildi. Bu ta'lim turi zarurmi?

Ha, albatta... Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi hamda maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab-ruhiy sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etiladi, bu guruh o'quvchilari turli to'garaklar, seksiyalar, maktabdan tashqari tadbirlarda qatnashish imkoniyatiga ham ega.

Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim. Inklyuziv ta'lim butun dunyoda keng tarqalgan yondashuv bo'lib, ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga, shu jumladan nogironligi yoki alohida ehtiyojlari bo'lgan shaxslarga ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratishdir:

- inklyuziv ta'lim sinfi — maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf;

boshlang'ich tayanch korreksion sinfi — maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etiladigan boshlang'ich sinf;

o'quvchilar — inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tahsil olayotgan sog'lom yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

Inklyuziv ta'lim o'quvchilari maktabda boshqa sog'lom bolalar bilan bir qatorda maktabga qatnab muayyan sinfning o'quv rejasiga mos keladigan o'quv dasturlari doirasida tahsil oladi. Maktabga qatnab o'qish imkoniyati bo'lmagan o'quvchilarga ta'lim berish o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan kelishilgan tavsiyaga muvofiq zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni masofadan turib yoki uyda yakka tartibda ta'lim berish orqali amalga oshiriladi.

**Maktab psixologi** har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

-o'quvchini individual rivojlantirish (oilada va inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim berish) dasturlarini tuzish;

-o'quvchilar bilan guruhlarda mashg'ulotlar olib borish;

-o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Shu bilan birgalikda maktabda tibbiyot xodimi tomonidan o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatadi. Tibbiyot xodimi: o'quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion-pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, o'quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ularni sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi.

Jahon tajribasi inklyuziv ta'limni amalga oshirishda turli yondashuv va usullar qo'llanilishini ko'rsatmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida inklyuziv ta'limga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi inklyuziv yondashuvni kengaytirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Kanadada ham inklyuziv ta'limga alohida e'tibor beriladi. Bu mamlakatning ta'lim tizimi nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus resurslar va o'qituvchilarni ta'minlaydi, shuningdek, o'quvchilarning turli ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarini ishlab chiqish amaliyoti mavjud. Yaponiya va Janubiy Koreya kabi Osiyo mamlakatlari ham inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ilgarilab bormoqda. Bu mamlakatlarda o'qituvchilar nogironligi yoki alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni integratsiya qilish va ularning ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun maxsus yondashuvlarni qo'llaydilar. Janubiy Afrikada inklyuziv ta'limga e'tibor 1990-yillardan keyin kuchaydi va ta'lim tizimida barcha o'quvchilarning teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar va siyosatlar qabul qilindi. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha ijobiy qadamlar tashlandi. Respublikamizda turli tashabbuslar va ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni qo'llashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda shuningdek, inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi nogironligi bo'lgan o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktablariga jalb qilish va ularning ta'lim olishda teng imkoniyatlarini ta'minlashdir. Respublikamizning bir qator ta'lim muassasalarida alohida ehtiyojli bolalar uchun individual yondashuvlar qo'llanilib ular uchun maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Shuningdek, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida inklyuziv ta'limni joriy etish uchun zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda inklyuziv

ta'limning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim maktablariga jalb etish va ularga ta'lim olishda teng sharoitlarni yaratishdan iborat. Respublikaning bir qator ta'lim muassasalarida alohida ehtiyojli bolalarga individual yondashuvlar qo'llanilmoqda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Shuningdek, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlar ishlab chiqilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish milliy strategiyasi" kabi hujjatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, O'zbekistonda xalqaro tashkilotlar va homiyar bilan hamkorlikda alohida ehtiyojli o'quvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagog kadrlarga alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha zarur ko'nikmalarni o'rgatish maqsadida treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslari tashkil etilgan. Shuningdek, o'qituvchilarni maxsus didaktik materiallar va vositalar bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ta'lim dasturlari va resurslar kengaytirilmoqda. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar individual ta'lim rejalari asosida har bir bolaning ehtiyojlariga mos keladigan o'quv dasturlarini yaratishga va amalga oshirishga intilmoqdalar. Bu jarayon, avvalo, bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim bir qator afzalliklarga ega, ulardan ba'zilari:

- O'quvchilar tengligi: Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar taqdim etadi, ularning jamiyatga to'liq integratsiyalashuviga ko'maklashadi.
- Ijtimoiy barqarorlik: Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.
- Shaxsiy rivojlanish: Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.
- Ijtimoiy ko'nikmalarning keng doirasi: O'quvchilar bir-birlariga yordam berishni, turli madaniyatlar va ehtiyojlarni tushunishni hamda ijtimoiy ko'nikmalarni

rivojlantirishni o'rganadilar. Inklyuziv ta'lim jamiyatda barcha o'quvchilarning teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan muhim yondashuvdir.

Jahon tajribasi inklyuziv ta'limni amalga oshirishda ijobiy natijalar va o'ziga xos yondashuvlarni ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ham ushbu yondashuvni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatda tenglik, adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish uchun davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur.

Dunyoda inklyuziv ta'limning rivojlanishi har bir mamlakatning ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga moslashtirilgan. Inklyuziv ta'limni joriy etishning muvaffaqiyati davlatlararo hamkorlik, o'qituvchilarni tayyorlash va maxsus resurslar bilan ta'minlashga bog'liq. O'zbekistonda 2010- yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun inklyuziv ta'limni rivojlantirish tamoyillari va me'yorlarini belgiladi. Shunday qilib, nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning oilalariga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim sohasida ijobiy o'zgarishlar va taraqqiyot ro'y bermoqda.

Alohida ehtiyojli o'quvchilarga teng imkoniyatlar asosida ta'lim berish, ular uchun zarur infratuzilmani yaratish, o'qituvchilarni tayyorlash va inklyuziv ta'limga jamoatchilikni jalb etish bo'yicha qator ijobiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Me'yoriy-huquqiy bazani yaratish O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda ham imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olishda teng huquqlarini ta'minlash tamoyillarini belgilab bergan.

2. Maxsus ta'lim dasturlari va resurslar O'zbekistonda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitish uchun maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Mazkur dasturlar har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan bo'lib, o'quvchilarning umumiy ta'lim tizimiga qo'shilishini ta'minlashga qaratilgan. Maktab va ta'lim muassasalarida maxsus resurslar, jumladan, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma va materiallar tayyorlandi.

3. O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni hayotga tatbiq etish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Alohida ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash uchun pedagoglar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar maxsus tayyorgarlikdan o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi tomonidan inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar muntazam ravishda o'tkazilmoqda.

4. Ta'lim muassasalarida infratuzilmani yaratish loyihalari. Maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida ta'lim jarayonini subektlarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga oid xalqaro tajribalar, muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2025-yil 26-martda 364 infratuzilma barpo etildi. Maktablarda liftlar o'rnatilmoqda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan sinfxonalar jihozlanmoqda, maxsus o'quv materiallari va texnologiyalar joriy etilmoqda. Bunday sharoitlar imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishini yengillashtiradi va ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi.

5. Jamiyatda inklyuziv ta'limni tushunish va qabul qilish. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning ijtimoiy qabul qilinishini oshirish va bu borada jamiyatni xabardor qilish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot ishlari olib borilmoqda. O'qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikni inklyuziv ta'limga jalb qilish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy muhitni shakllantirish maqsadida targ'ibot tadbirlari va seminarlar tashkil etilmoqda.

6. Xalqaro hamkorlik va donor tashkilotlar yordami. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim sohasida YUNESKO, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik doirasida imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarni tayyorlash va ta'lim tizimining inklyuzivligini oshirishga qaratilgan turli loyiha hamda dasturlar amalga oshirilmoqda.

**O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonidagi zamonaviy muammolar va ularni hal qilishning mumkin bo'lgan yo'llari tahlili**

Shu kunga qadar inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, muammolari, shuningdek, ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, o'qituvchilarni tayyorlash, ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish va iqtisodiy resurslarni ko'paytirish kabi muhim ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali nogironligi bo'lgan bolalar va o'qishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishdagi ta'limning zamonaviy muammolari:

Bugungi kunda ta'lim tizimi bilan bog'liq bir qator hal qilinmagan muammolar mavjud bo'lib, bu inklyuziv ta'limni ham o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limdagi dolzarb muammolar quyidagilardan iborat:

1. Yetarli me'yoriy-huquqiy mukammal bazaning yo'qligi. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar kabi qonunlar mavjud bo'lishiga qaramay, inklyuziv ta'limning ko'p jihatlari batafsil bayon etilmagan (hozirgi kunda ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limga nechanchi sinflarga qabul qilinishi aniq qilib ko'rsatilsa...)

2. Malakali kadrlarning yetishmasligi. O'qituvchilar ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikka ega emaslar, bu esa inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish imkoniyatlarini cheklaydi (yuqori sinflarning barcha fan o'qituvchilarini ham bosqichma bosqich tayyorlab borish kerak...)

3. Moddiy-texnik qiyinchiliklar. Ko'pgina ta'lim muassasalari jismoniy, sensor yoki boshqa cheklovlari bo'lgan bolalar uchun jihozlanmagan (bu muammoni han barcha ta'lim muassasalarida bosqichma bosqich amalga oshirish vaqti keldi...)

4. Stereotiplar va noto'g'ri qarashlar. Jamiyat ko'pincha inklyuziyaning ahamiyati haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas, bu esa bunday bolalarning kamsitilishi va yakkalanishiga olib keladi.

5. Moliyalashtirishning yetarli emasligi. Inklyuziv ta'lim kadrlar tayyorlashdan tortib, moslashtirilgan infratuzilmani yaratishgacha bo'lgan katta sarmoyalarni talab qiladi. Inklyuziyaning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlari sa'y-harakatlarining uyg'unligi zarur.

Bir qator o`tkazilgan tadqiqotlar tahlilni sizlarga ulashamiz:

Oddiy maktab o`quvchilarining turli xil imkoniyati cheklangan o`quvchilarga munosabati. Bolalar tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo`lgan tengdoshlariga eng ko`p bag`rikenglik bilan munosabatda bo`lishlari aniqlandi. Eshitish va ko`rish nuqsoni bo`lgan bolalar kamroq mehirda ega bo`lishdi. Eng past tolerantlik darajasi aqliy faoliyatida nuqsoni bo`lgan bolalarga nisbatan belgilandi.

"Boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarining inklyuziyasiga munosabat: maktabda inklyuziya g`oyalarini hayotga tatbiq eta oladigan o`qituvchilar. Ushbu tadqiqotda "O`qituvchi menejer rovida. " Ushbu tadqiqot natijalari umumta`lim maktablari tizimiga inklyuziv ta`limni joriy etishning butun murakkabligini aks ettirdi. Shuni ta`kidlash kerakki, ba`zi tadqiqotlar natijasida inklyuziv ta`limga o`qituvchilar tomonidan ham, inklyuziv sinflarda tahsil olayotgan bolalarning ota-onalari tomonidan ham salbiy munosabat mavjudligi aniqlandi.

Mumkin bo`lgan yechim yo`llari:

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish. Inklyuziya masalalarini, shu jumladan moliyalashtirish mexanizmlari, maktablarning majburiyatlari va ota-onalarning huquqlarini aniq tartibga soluvchi maxsus qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etish.

2. Ta`lim muassasasidagi barcha pedagoglarni tayyorlash. Ta`lim muassasasidagi barcha fan o`qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Pedagoglar turli toifadagi bolalar bilan ishlay olishlari uchun pedagogika oliy o`quv yurtlari va kollejlarda ixtisoslashtirilgan fanlarni joriy etish.

3. Qulay infratuzilmani yaratish. Alohida ehtiyojli bolalar uchun qulay sharoitlarni ta`minlash maqsadida barcha ta`lim muassasalarida rekonstruksiya ishlarini olib borish: panduslar, liftlar, taktil ko`rsatkichlar va maxsus jihozlarni o`rnatish.

4. Axborot-ma`rifiy ishlar. Inklyuziv ta`lim to`g`risida jamiyatning xabardorligini oshirish, stereotiplarni bartaraf etish, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalarga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun muntazam ravishda yig`inlarda bu mavzuga ham alohida to`xtalib o`tish.

5. Idoralararo hamkorlikni rivojlantirish. Muammoni hal etishga kompleks yondashish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa idoralar o'rtasida hamkorlikni keng yo'lga qo'yish.

6. Xalqaro tajribani jalb qilish. Boshqa mamlakatlardagi inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli namunalaridan foydalanish, ushbu modellarni O'zbekiston voqeligiga moslashtirish.

7. Moliyalashtirishni ko'paytirish. Inklyuziv loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, xalqaro grantlarni ko'proq jalb qilish va biznesning ijtimoiy tashabbuslarida ishtirok etish.

8. Masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, bu ayniqsa chekka hududlardagi bolalar uchun dolzarbdir.

Xulosa: Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'limiy, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini talab qiladigan ijtimoiy loyihadir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish bag'rikenglik, teng huquqlilik va ijtimoiy adolatni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonda bu soha faol rivojlanish bosqichida, ammo muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud to'siqlarni yengib o'tish va uzoq muddatli strategik yechimlarni joriy etish va ushbu maqsadlarga erishish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish va jamiyatda inklyuziv ongni shakllantirishni davom ettirish zarur. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu jamiyatni adolatli, teng va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun kompleks yondashuvlar va hamkorlik zarur. O'qituvchilarning tayyorlanishi, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, ijtimoiy stereotiplarni o'zgartirish va iqtisodiy resurslarni ko'paytirish orqali O'zbekiston inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli joriy eta oladi va jamiyatning barcha a'zolariga teng imkoniyatlar yaratadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi (2020). "Ta’lim to‘g‘risidagi qonun." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. S.Mustafayeva (2019). "Inklyuziv ta’lim: O‘zbekiston tajribasi va rivojlanish istiqbollari." "Ta’lim va jamiyat" jurnali, 12 (2), 34-40.
3. A.Sharipov (2021). "O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish: haqiqiy imkoniyatlar va muammolar." Ta’limdagi innovatsiyalar, 6 (3), 58-65.
4. G.Jabborova (2020). "Inklyuziv ta’limga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab quvvatlash: O‘zbekistondagi holat." Ta’lim va taraqqiyot, 8 (1), 12-18.
5. L.Ye. Pedagoglarning tayyorgarligi ta’limda inklyuziv jarayon muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida // Psixologiya fani va ta’limi. - 2011. - Tom. 16. - No1. - S.83-92.